

**KECHIRIMSIZ HAYOT BU–QAMOQXONA (“UFQ” TRILOGIYASI  
HAQIDA)**

*Najmiddinova Sarvara Samariddinovna*

*Olinjonova Zarnigor Shokirjon qizi*

*O`zbekiston davlat san`at va madaniyat Institutining Farg`ona mintaqaviy  
filialilining Qo`g`irchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabalari*

**E-mail:** [najimiddinovasarvara@gmail.com](mailto:najimiddinovasarvara@gmail.com)

[zulfizarshakirjanovna@gmail.com](mailto:zulfizarshakirjanovna@gmail.com)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida qahramonlarning gavdalanishi, xarakterlarning o`ziga xosligi muhokama etiladi. Bu asar uch kitobdan iborat. Romanning birinchi kitobi “Qirq besh kun”, ikkinchi kitobi “ Hijron kunlarida”, so`nggi, uchinchi kitobi esa, “Ufq bo`sag`asida” deb ataladi. „, Hijron kunlarida” nomli ikkinchi kitobdan olingan „Qochoq” parchasiga nazar tashlasak, bu parchadagi qahramonlar Ikromjon, Jannat xola, Tursunboy ya`ni bir oila. Bunda urush vaqtidagi holatlar tasvirlangan. O`g`lini urushga jo`natib, o`g`lim Qahramon deya xursand bo`lib turgan Ikromjon va Jannat xolalarning xursandchiligi uzoqqa cho`zilmaydi. Chunki o`g`li. jasorati yetmay qochadi va „qochoq” nomini oladi. Bir nodon farzandni deb Jannat xola ham vafot etadi. Ota esa bu isnodni ko`tarib yurishga majbur edi ya`ni Said Ahmadning “Ufq”trilogiyasi xalqimizning ikkinchi jahon urushigacha va urush davri, urushdan so`ngi yillardagi xalqning ichidagi voqealari qalamga olingan. Bu asarni o`qib inson beixtiyor xayolga chõmib , õsha davr olamiga tushib qolgandek bõladi . Asarda kechgan voqealar hozirgi kundagi istiqlolimizning qadriga yetishga undaydi . Men bu maqolada sinovlarga bardosh bergan, o`zbek xalqining irodali va kechirimli ekanligini yoritib berishga harakat qildim.*

**Kalit so`zlar:** Xarakter, trilogiya, roman, Tursunboy, Zeboxon.

## **KIRISH**

"Ufq" romani XX asr millat hayotining o'n yillik davri – Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillar voqealarini o'z ichiga oladi. O'zbek adibi Said Ahmadning 1968-yilda "Sovet yozuvchisi" nashriyatida chop etilgan "Ufq" romanining birinchi kitobi " Qirq besh kun" deb nomalanadi, bunda Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek erkaklarining juda mard va jasur ekanligi so'zlanadi. Romanning ikkinchi kitobi "Hijron kunlarida" deb atalgan bu kitobda urush qahramonlari jangda qahramonlik ko'rsatishsa, bularni kuzatib qolgan front ortidagi qahramonliklar ochib beriladi. Romanning uchinchi kitobi esa "Ufq bo'sag'asida" deb nomlanadi, bunda voqea tinchlik davrida, fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabadan keyingi dastlabki oylaridagi voqealar batafsil yoritilgan. Bu asar uch kitobdan iborat. Romanning birinchi Kitobi "Qirq besh kun", ikkinchi kitobi "Hijron kunlarida", so'nggi, uchinchi kitobi esa, «Ufq bo'sag'asida» deb ataladi. „ Hijron kunlarida” nomli ikkinchi kitobdan olingan „Qochoq” parchasiga nazar tashlasak, bu parchadagi qahramonlar Ikromjon, Jannat xola, Tursunboy ya'ni bir oila. Bunday urush vaqtidagi holatlar tasvirlangan.<sup>1</sup>

Bir nodon farzandni deb Jannat xola ham vafot etadi. Ota esa bu isnodni ko'tarib yurishga majbur bo'ladi. Ushbu asar ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o'zbek dehqonlarining front orqasida ko'rsatgan xizmatlari, mehnat qahramonliklarini va urushdan oldingi va keyingi yillar haqida hikoya qiluvchi asar "Ufq" romani 1964 yillari haqida yaratilgan asardir. Asarni o'qir ekansiz o'sha urush vaqtlariga qaytganday bōlasiz, har satrini mutollaasida o'zingizga yaxshi va yomon fazilatlarni hayot darslarini olasiz.

## **ASOSIY QISM**

Kechirim – bu g'azab qamoqxonasini va nafratning kishanlarini ochadigan kalit. Bu Achchiqlanish zanjirlarini va xudbinlikning kishanlarini buzadigan kuchdir. Shuningdek, " Ufq" Asarida axloqiylikning o'rni nihoyatda beqiyosdir.

Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi bir insonning hayotini uch bosqichda tadqiq

---

<sup>1</sup> Normatov U., Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

etadi. Har bir bo'limlar orasida "Ikromjon" obrazi bog'lovchi sifatida xizmat qiladi. Sababi unda yoshlikdagi beg'ubor sevgi, g'urur, nomus, ayriliq, insonlarga bitmas Azoblar olib kelgan urush va xatto shunday og'ir damlarda ham farzandini kechirgan ota, farzandining xatolariga ko'z yumgan jonkuyar ona va mehribon rafiqa orqali o'zbek xalqi tasvirlangan, ammo, Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek xalqning ichida nomard, mehrsiz, va qochoq insonlar topiladi. Ularning hayoti zulmatli va ma'nosiz bo'ladi. Biroq, "Kechirimlilik" qulfdan Insonning insonga bo'lgan nafrat va xudbinlikini ochib yuboradi. Asarda hayotdagidek, Vatanga, oilaga sadoqat va yigitlik qasamidan kechib sharmandali hayotga rozi bo'lgan "qochoq o'g'il" kabi insonlar taqdiri haqiqiy hayot manzarasi sifatida tasvirlangan. Ammo, uning ichida o'zbek xalqi Ikromjon va Jannat xola Ollohdan tilab olgan yagona farzandi Tursunboyni ne-ne umid, ne-ne Intizorlik bilan dunyoga kelturguncha, ne-ne mehnat, ne-ne mashaqqat bilan uni voyaga yetkazib, xalq xizmatiga topshirguncha ota-ona yuzlariga ajin, sochlariga oq tushdi. Lekin u otanasining yuzini yerga qaratdi, ammo, Tursunboyga qilingan "Kechirimlilik" tuyg'usi asarni yoritib yuborgan ya'ni Ikromjon yaxshi bir masalaga adolatli javob beradi, bu masala o'zbek xalqiga xos hislati edi.

"Ufq" asarida axloqiylikning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Shuning uchun bu asar xalqimiz hayotida katta ahamiyatga egadir. Roman trilogiya 3 tomdan iborat....!!! Birinchi kitobi " Qirq besh kun" deb nomlanadi, bunda halqimiz Farg'ona kanalini belkurak va qo'l mehnati bilan qazib suv yo'li, kanal ochishgani haqida yozilgan. Ikkinchi kitobi "Hijron kunlarida" deb atalgan bu kitobda urush qahramonlari jangda qahramonlik ko'rsatishganlari, Uchinchi kitobi esa "Ufq bo'sag'asida deb" nomlanadi bu urushdan so'ng qiyinchiliklar haqida, xalqimiz mardonavar kurashib ham yomon otliq bo'lgani yoritib beriladi.

Asarda asosan burch, burchga hiyonat, mehnatsevarlik, muhabbat va nomussizlik, qadr-qimmat, vijdon haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, frontdagilarga yordam berish maqsadida Nizomjon yer sotib oladi va oziq-ovqat yetkazib berib vijdonli, insofli, diyonatli odam sifatida tasvirlanadi otasi esa Inoyat oqsaqol vijdonsiz etib tasvirlanadi. U oziq-ovqatni qimmatga sotib pul topaydi. Inoyat

oqsoqol vafot etgandan keyin Nizomjonga juda katta meros qoladi va u pullarni kolhoz qurulishiga yordam beradi. Nizomjon vijdonli diyonatli inson sifatida ko'p odamlarga yordam beradi.

Davrga xos qiyinchiliklar, mashaqqatlar o'gushida urush va mehnat frontiga safarbar qilingan yoshlar qalbi j'oshqinlik va muhabbatga juda ham boyligini bilan diqat etiborini jalb etadigon asardir.

Ikromjon urush tufayli yigitlik vazifasini bajara olmagan o'g'li Tursunboyning odamlarning gaps'ozlariga e'tibor qaratmay kechiradi va o'z otalik vazifasidan kelib chiqib adolatli qaror qabul qildi. Agarda Ikromjon Tursunboy ni kechirmaganida va adolatli qaror qabul qilmaganida. Tursunboyning hayoti tashqarida bo'lsa ham qamoqxonaning maxbuziga o'xshab davom etaverardi. Asarda o'zbek xalqi azal azaldan farzandi uchun ota-ona kechirimli zot bo'lishini va milliy-qadriyatlarimiz saqlanib qolganini guvohi bo'lamiz. Shunindek, asarda har xil qahramonlar taqdiri hikoya qilinadi. Unda ota -ona mehridan juda erka bo'lib o'sgan faqat o'zini o'ylaydigan Tursunboy ham , farzandlariga yetarli mehr bera olmay faqat mol-dunyo tashvishida yuradigan juda ham ziqna ota obrazi ham, farzandi qilgan gunohlaridan butun umri yuzi qora bo'lib qolgan va uni o'ldirishni xoxlab borib lekin o'ldirmagan Ikromjon ham, butun umr "bolam " deb yashagan Jannat xola ham, ziqna va bemehr bo'lgan ota qo'lida vijdonli va mehnatkash bola bo'lib o'sgan Nizomjon ham o'z o'rniga ega. "Ufq" romanida navqiron avlodni insonparvar, vatanni ulug'laydigan, uni asrab-avaylaydigan va himoya qiladigan vatanparvar shaxs sifatida kamol toptirishga da'vat etilgan. Romanda davrga xos qiyinchiliklar, mashaqqatlar ichida urush va mehnat frontiga safarbar qilingan yoshlar: Azizxon va Lutfinisa, Nizomjon va Dildor, Tursunboy va Zebixon kabi tutashgan taqdirlar hayotidagi fojialar tasvirlangan. Tursunboy trilogiyasi qahramonlaridan biri misolida barcha zamon va davrlarning o'zgarayotgan yoshlarining salbiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Aftidan, ota-onalar farzandlari uchun mumkin bo'lgan va imkonsiz bo'lgan hamma narsani berib, unga mehr qo'yishdi. Qiyinchiliklardan keyin qahramonlarning yana sevgiga va sadoqatga ro'baro' bo'lishi, birinchi muhabbat davr va sinovlar qa'riga singib ketishini ko'rish, jonli

tasvirlar orqali tarixiy ma'lumotlar bilan tanishish, ezilgan xalqning hayot mashaqqatlarini tushunish mumkin. Ushbu O'zbek adabiyotining nodir durdonasi- "Ufq" romani insonni sabrga, mehrga, kechirimli bo'lishga o'rgatadi. Kitobning har biridagi qahramonlar bilan birga yashaysiz, kulasiz, qayg'urasiz, ba'zan alam bilan yum-yum yig'laysiz! (ayniqsa Lutfinisoning o'limi, Azizxonning armonli sevgisi, Tursunboyning subutsizligi tasvirlangan jarayonlarda), shuningdek, o'zbekning metin irodasiga tasannolar aytasiz. O'zbek Onasining mukammal portreti hisoblangan Jannat aya obrazi zamirida har kim o'z xayolida o'z onasining siyratini yaratadi. Said Ahmadning "Ufq" romani kitobxon qalbidagi mangu yashaydigan, uning qalbidagi barcha his-tuyg'ularini uyg'otishga qodir asardir. Asarda Tursunboy qilmishi qoralanadi, hatto otasi ham xiyonatkor o'g'ilni mahv etishga tayyor. Avvalo, ota-onadan ham ayb o'tgan: ular yolg'iz o'g'illarini erka, tantiq qilib o'stirganlar. Bugun erka farzand ularni el orasida sharmisor qilyapti. Biroq bu ayblovlar zamirida urushni qoralash, bu qirg'inbarotni o'ylab chiqarganlarni la'natlash yotibdi.<sup>2</sup>

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi nafaqat yozuvchi ijodida, balki o'zbek adabiyotida yangi janr hisoblanadi. Shuningdek, ushbu asar bugungi yoshlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Normatov U., Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971
2. Wikipedia
3. Ziyouz.com

---

<sup>2</sup> Ziyouz.com